

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

F.D.Ibragimovanning “Biotexnologiya” fakulteti 60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalariga “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash” mavzusidagi ochiq amaliy mashg’ulotiga

T A Q R I Z

F.D.Ibragimovanning “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash” mavzusidagi ochiq amaliy mashg’ulot darsining uslubiy ko’rsatmasida ushbu muammoning dolzarbligi, uni o’rganishni veterinariya amaliyotidagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Mavzuda mavzuga oid atamalar, ularni izohlari tushuncha holatida berilgan. Amaliy mashg’ulotda foydalaniladigan jihozlar sanab o’tilgan. Bundan tashqari amaliy mashg’ulotning asosiy qismi to’liq yoritilgan.

Amaliy mashg’ulotning taqdimotida “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash” mavzusi batafsil yoritilgan bo’lib, nafas havosi, qo’shimcha va rezerv havolarning organizm uchun ahamiyati haqida tushunchaga ega bo’lish, bundan tashqari o’pkaning umumiy tiriklik sig’imi, qoldiq havo, alveola havosi tushunchalari keltirilgan. Shuningdek, amalda tajriba ishlari bilan mavzu mustahkamlangan. Bundan tashqari, dars pirovardida mashg’ulot bo’yicha ishlanma talabani fikrlash qobiliyatini oshiruvchi va shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan.

Amaliy mashg’ulot taqdimotida internet ma’lumotlaridan, slaydlardan rangli rasmlardan foydalanilganligi mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o’zlashtirilishiga yordam beradi.

F.D.Ibragimovanning “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash” mavzusidagi amaliy mashg’uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga to’liq javob beradi deb hisoblayman va uni o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi
va patologik fiziologiya” kafedrasining**

dotsenti, b.f.n.:

D.Eshimov

**F.D.Ibragimovanning “Biotexnologiya” fakulteti 60840200 – Veterinariya
farmatsevtikasi ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalariga “Hayvonlar
fiziologiyasi” fanidan “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash”
mavzusidagi ochiq amaliy mashg’ulotiga**

T A Q R I Z

Amaliy mashg’ulot mavzusi fan dasturi va ishchi o’quv dasturiga to’liq mos keladi. “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash” mavzusidagi amaliy mashg’ulot, matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to’g’ri taqdimot qilingan. Dastlab amaliy mashg’ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg’ulotini o’qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo’lib, unda pedagogik faoliyat va o’quv faoliyat natijalari ko’rsatilgan. Amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasida esa o’quv mashg’ulotining vaqti ko’rsatilgan.

Agar mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko’rgazmali qurollardan o’z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, amaliy mashg’ulotda talabalar bilan muloqotda bo’lib, mavzu yuzasidan fikrlar so’ralib, o’tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to’g’ri yozilgan shuning uchun F.D.Ibragimova tomonidan tayyorlangan “O’pkaning tiriklik havo sig’imini o’lchash” mavzusidagi ochiq amaliy darsini o’quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

Veterinariya ilmiy tadqiqot

Instituti “Vetsanitariyasi va

urchitish” laboratoriyasi mudiri v.f.d.

Qo’ldoshev O.O’.